

EKOLOGIK TURIZM

Mo'minov Avazbek Ahmadjon o'gli
Toshkent Xalqaro Kimyo Universiteti
Turizm fakulteti 3-kurs talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi paytda mamlakatimizda rivojlangan sohalar qatoriga kirib kelgan turizm va ekoturizm tushunchalarining mohiyati, hayotimizda tutgan muayyan roli hamda ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ekoturizm, turizm, tabiat, insoniyat, obida, arxeologik, muzey.

Abstract: This article will talk about the essence of the concepts of Tourism and ecotourism, the specific role and importance that we have played in our lives, which are currently among the developed areas in our country.

Keywords: ecotourism, tourism, nature, humanity, monument, Archaeological, Museum.

Аннотация: В данной статье речь пойдет о сущности, определенной роли и значении понятий туризма и экотуризма, которые в настоящее время входят в число развитых в нашей стране отраслей.

Ключевые слова: экотуризм, туризм, природа, человечество, памятник, археология, музей.

Mamlakatimizda turizm sohasining ekologik turizm yo'nalishi insoniyat oldidagi ekologik inqirozning oldini olish, insoniyatning barqaror rivojlanishi va yashab qolishi uchun, sayyoramiz tabiati va uning resurslarini saqlab qolishdagi najot yo'llarini axtarish zaminida shakllandi va rivojlanib bormoqda.

Ekoturizm (ekoturizm, yashil turizm) - antropogen ta'sirga nisbatan ta'sirlanmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir shaklidir.¹ G'arbdagi "ekoturizm" atamasi XX asrning 80-yillari birinchi yarmida meksikalik ekolog Ektor Ceballos-Laskurain (ispancha Hector Ceballos-Laskurain) tomonidan konferentsiyalardan birida rasmiy ravishda ishlatilgan. U dam olish va ekologiya o'rtasidagi uyg'unlik g'oyasini aks ettirdi va katta Shuhrat qozondi. Ushbu ta'rifning variantlaridan biri ekoturizm tabiiy imtiyozlardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shakli sifatida. Bu qulaylik, ommaviy kommunikatsiyalar, tobora ko'payib borayotgan sayyohlik tovarlarining mavjudligi va iste'mol qilinishidan voz kechishni o'z ichiga oladi (masalan, tur realizmidan farqli o'laroq, bu yuqori darajadagi qulaylikni saqlab, tabiat va madaniyatga sho'ng'ishni o'z ichiga oladi).

¹ Лукичев А. Б. Сущность устойчивого и экологического туризма // Российский Журнал Экотуризма. — 2011. — № 1. — С. 3-6.



Insoniyat oldida turgan sayyoraviy ekologik muammolarni insoniyatning o‘zi bartaraf etishi kerak va bartaraf etishga majbur. Shu nuqtayi nazardan ham, mamlakatimizda ekoturizmni rivojlantirish masalalarini o‘z vaqtida hal qilishimiz, tabiatimizdagi bioxilma-xillikni saqlab qolish, tabiiy resurslarimizni muhofaza qilish hamda xalqaro ekologik inqirozlarning oldini olishga qo‘shgan hissamiz bo‘ladi. Shu o‘rinda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning ushbu so‘zlarini keltirishimiz o‘rinli bo‘ladi: *“Men turistik biznes deganda, turizmni shunchaki rivojlantirish emas, balki kengroq tushunchani nazarda tutaman. Bunda gap turizm faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan xizmat ko‘rsatish va servis tarmoqlarini rivojlantirish haqida bormoqda. Bu soha taraqqiyoti mamlakatimizga xorijiy turistlarni ko‘plab jalb etish bilan birga, eng muhimi, katta valuta tushumlarini ta‘minlash bilan yurtimizning iqtisodiy va ijtimoiy rivojiga ulkan hissa qo‘shishi muqarrar”*². Turizm sohasi o‘z rivojlanishini boshlayotganligi uchun respublikamizda iqtisodiyotning bu muhim tarmog‘ining istiqboli bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar asta-sekinlik bilan tahlil qilinmoqda, ekoturizmni O‘zbekistonda tashkil qilishning mohiyati, an‘analari va strategiyasi, O‘zbekistonda milliy turizmni rivojlantirish modeli, milliy turizm biznesini tashkil qilish va boshqarish hamda turizm xavfsizlik asoslari bo‘yicha dastlabki muhim tahlillar natijalari chop qilindi. Shuningdek, O‘zbekistonda turizm sohasida oliy va o‘rta toifadagi mutaxassislar tayyorlash uchun dastlabki darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, sohani rivojlantirishda o‘quv-uslubiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim ilmiy adabiyotlar tayyorlanmoqda. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning dolzarb masalalari va muammolari va ularning yechimlariga bag‘ishlangan, o‘quv va ilmiy adabiyotlarning nashr qilinganligi ham, iqtisodiyotimizda turizmning muhim sohaga aylanib borayotganligini bildiradi³. Mamlakatimizda turizmni shakllantirishda turizm sohalarining, turizm turlarining

² I.A.Karimov. Obod va ozod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O‘zbekiston, 2000. 232-b.

³ Н.Тухлиев, Т.Абдуллаева. Экологический туризм; сущность, тенденции стратегия развития. – Toshkent, 2006. 416-b., Tuxliyev I., Hayitboyev R. va boshqalar. Turizm asoslari. – Toshkent, 2014. 330-b. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. – Toshkent, 2010. 265-b. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, 2011. 336-b.

mohiyatini anglab olishda turizm amaliyotida va nazariyasida etuk mutaxassislar, olimlarning yo‘qligi natijasida dastlabki vaqtlarda ko‘plab noaniqliklarga yo‘l qo‘yildi. Tajribasizlik natijasida dastlabki tadqiqotchilar ekoturizmning kelib chiqishi va uning maqsadi, vazifalarini to‘g‘ri tushunaolmadilar.



Ekologik turizm xalqaro miqyosda ommaviylashib borishi natijasida uning targ‘ibotiga va tashviqotiga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy konferensiyalar tashkil qilish, o‘tkazish kuchaytirilgandan keyin noaniq fikr-mulohazalar, quruq tavsiyalar, ilmiy to‘plamlarda ekoturizmning ta‘rif va tavsiflarini belgilashdagi tavsiyalar ilmiy-amaliy jihatdan asoslanmagan holda ko‘payib ketdi (shaharlar ekoturizmi, tarixiy obidalar ekoturizmi, arxeologik qoldiqlar ekoturizmi, hayvonot bog‘lari ekoturizmi, muzeylar ekoturizmi va boshq.).

Yurtimiz turizmining o‘ziga xosligi shundaki, bu yerda musaffo tabiatdan bahramand bo‘lishingiz, mahalliy sog‘lomlashtirish maskanlarida sog‘lig‘ingizni tiklashingiz, yovvoyi va beg‘ubor tabiat qo‘ynida unutilmas va hatto ekstremal ta‘til o‘tkazishingiz hamda qishloq aholisi, haqiqiy o‘zbek qishlog‘ining turmush tarzi bilan tanishishingiz mumkin.

1. Zomin, Jizzax viloyati



2. Ugam-Chotqol milliy bog‘I



3. Amirsoy, Toshkent shahri



4. Nurota tog‘lari



5. Aydarko‘l ko‘li



"Ekologik turizm yoki ekoturizm — tabiatni muhofaza qilishni targ'ib qiluvchi, atrof-muhitga "yumshoq" ta'sir ko'rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini ta'minlaydigan tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o'rganish va zavqlanish uchun buzilmagan tabiiy hududlarga nisbatan atrof-muhitga mas'uliyat bilan sayohat qilish.ushbu faoliyatdan foyda olish. Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi .

"Ekoturizm-bu ekotizimlarning yaxlitligini buzmaydigan va tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'ladigan iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan hududning tabiiy va madaniy-etnografik xususiyatlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun nisbatan buzilmagan tabiatga ega joylarga sayohat qilishni o'z ichiga olgan turizm.

Ekoturizm – «Tabiatni muhofaza qilish», «Biologiya», «Geologiya», «Geografiya», «Botanika», «Tabiatdan foydalanish iqtisodi», «Iqtisodiy ekologiya», «Bioekologiya», «Geoekologiya» va boshqa tabiiy fanlarning nazariyasi, asoslari, jamiyat va tabiat munosabatlarining hozirgi asrimizga kelib sayyoraviy chegaralarda keskinlashib borayotganligi holatlaridan kelib chiqdi. Shu nuqtayi nazardan bu fanlarning har qanday fan ta'limi va har qanday sohadagi o'rni deyarli bir-biriga o'xshash ta'rifni, tavsifni anglatadi. Bunday ta'rif va tavsiflarni G.A.Bekbulatova juda yaxshi tushungan va olimaning xulosalari bo'yicha «Ekoturizm» fanida ekologik fanlar nazariyasiga nisbatan ekoturizm amaliyoti ancha ustunroq darajalarni egallaydi⁴.

Umumfikrlarni jamlab, tahlil qilganimizda ekoturizm tabiat qo'ynida bo'lishlikdir. Shundan kelib chiqib, ekoturizmning o'rganish obyekti tabiat va tabiatning barcha resurslari hisoblanadi. Sayyoramiz biosferasi va uning barcha tabiiy geografik mintaqalari, dunyo okeani, tog'lar, daryolar, o'rmonlar, o'simliklar dunyosi, hayvonot olami, iqlim boylklari va xususiyatlari ekoturizmning o'rganish obyekti hisoblanadi. Shu bilan birga xalqaro ekoturizm ilmiy-amaliy adabiyotlarida ekoturizmning asosiy obyektlari – alohida muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar, milliy parklar, biosfera qo'riqxonalari, tabiat qo'riqxonalari, tabiat buyurtmaxonalari, tabiat rezervatlari

⁴ Bekbulatova G.A. Turizm va rekreatsiya geografiyasi. Ma'ruzalar matni. – Nukus,2008. 107-b.

deyilgan. Yana bir xulosa bo'yicha ekoturist o'z qiziqishi bo'yicha tanlagan tabiiy obyekt uning uchun ekoturizmdagi asosiy obyekt hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. A.Karimov. Obod va ozod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – Toshkent, O'zbekiston, 2000. 232-b.

2. Н.Тухлиев, Т.Абдуллаева. Экологический туризм; сущность, тенденции стратегия развития. – Toshkent, 2006. 416-b., Tuxliyev I., Hayitboyev R. va boshqalar. Turizm asoslari. – Toshkent, 2014. 330-b. Tuxliyev I.S.,Qudratov G'.H., Pardayev M.Q. Turizmni rejalashtirish. – Toshkent, 2010. 265-b. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2011. 336-b.

3. Рахматулла Хайтбойев. Экологик туризм. - Toshkent – «Barkamol fayz media» – 2018 , 248- bet